

FARG'ONA VODIYSI LANDSHAFTLARI VA ULARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI (BUVAYDA TUMANI MISOLIDA)

Abdualilova Sh.B

Mo'minov D.G'

Qo'qon davlat universiteti

e-mail:xoliqberdiyevashahrizoda23@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada “inson-tabiat” o‘rtasida munosabatlar natijasida vujudga kelayotgan tabiiy va antropogen jarayonlar hamda ular ta’sirida yuzaga kelgan noqulay shart-sharoitlarni bartaraf etish muammolari o‘rganiladi. Bunday muammolarga sug‘oriladigan yerlarning texnogen buzilishini, cho‘llar maydonini o‘zgarishini, tuproq degradatsiyasini, yerlarning meliorativ holatini yomonlashishini, erozion jarayonlarni kuchayishini, tuproq va o‘simlik degradatsiyasini, deflyatsiya kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlarni kiritish mumkin.

Kalit so‘zlar: voha, vodiy, antropogen landshahtlar, sug‘oriladigan yerlar, tuproq degradatsiyasi, sug‘orma dehqonchilik, GAT.

LANDSCAPES OF THE FERGANA VALLEY AND THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF THEIR STUDY

ABSTRACT: Today, one of the most pressing global issues is the emergence of natural and anthropogenic processes resulting from the interaction between humans and nature, as well as the need to eliminate unfavorable conditions caused by these processes. Such changes include technogenic disturbance of irrigated lands, changes in desert areas, soil degradation, deterioration of land reclamation conditions, intensification of erosion processes, degradation of soil and vegetation, and negative natural-geographical processes such as deflation.

Keywords: oasis, valley, anthropogenic landscapes, irrigated lands, soil, degradation, transformation, modification.

KIRISH

Dunyoda yerlardan xo‘jalikning turli maqsadlarida foydalanish, qishloq xo‘jalik yuritishda meliorativ tadbirlarni olib borish, hududlarni turli xo‘jalik maqsadlarida tadqiq etish, qishloq xo‘jalik maqsadlarida baholash, sug‘oriladigan yerlarning texnogen buzilishini, ekologik holatni o‘zgarishi, tuproq va o‘simlik degradatsiyasi, erozion jarayonlarni kuchayib borishi kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlar tezlashishini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida ekologik holatlarni aniqlash, ekologik vaziyatni baholash va

optimallashtirishda hududlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Voha landshaftlarining shakllanishi va ularning xususiyatlari, sug'orish ta'sirida landshaft komponentlarining o'zgarishi, voha tuproqlarining o'ziga hos xususiyatlari, landshaftlarni ekomeliorativ holatiga bag'ishlangan tadqiqotlarni xorijiy olimlardan C.Conrad, R.Morgan, M.Machwitz, D.Worster, G.Le Bas, M.Jamagne, D.Pimentel, S.Pimentel, G.Behardi, S.Fast, X.Ren, F.Milkov, V.A.Nikolayev, A.Chibilev, Z.Atayev, respublikamiz olimlaridan L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Saidov, A.A.Abdulqosimov, A.A.Rafiqov, A.Rahmatullayev, S.B.Abbasov, X.Vahobov, A.Xojimatov, A.K.Urazbayev, K.M.Boymirzayev, A.A.Nazarov, Yu.X.Abduraxmonova, Q.S.Yarashev, O.M.Qo'ziboyeva, B.A.Meliyev, B.B.Eshquvvatov, I.K.Mirzaxmedov va boshqalar shug'ullanishgan. Xorazm viloyatining hozirgi voha landshaftlari to'g'risidagi ma'lumotlar E.M.Murzayev, V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.A.Rafiqov, V.A.Popov, A.A.Abdulqosimov, P.Baratov, A.K.Urazbayev, I.A.Hasanov, B.A.Bahriddinov, M.Shomuratov, T.Ollaberganov, Sh.Dusanova, M.Matchanov va boshqalarning ilmiy asarlarida berilgan.

Voha landshaftlarini tadqiq qilish maqsadida: kartografik, paleogeografik, tabiiy analoglar, distansion, landshaft-indikatsiya, landshaft-geokimyo, ekspeditsiya usullaridan foydalanish kutilgan samaralarni berishi aniq.

Kartografik usullar ichida birinchi navbatda landshaft kartografik usulini qo'llash maqsadga muvofiq. Landshaftlarni kartalarini yaratishda umumgeografik (topografik) va mavzuli kartalardan tegishli axborotlar olish mumkin.

Paleogeografik usulni qo'llash shuni ko'rsatadiki, barcha voha landshaftlari o'zining rivojlanish tarixiga ega bo'lib, ularning hozirgi holati nafaqat hozirgi, balki o'tgan davrlar, hatto juda uzoq o'tmish sharoit bilan bog'liq. O'sha uzoq va yaqin o'tmish har bir voha landshaftlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Paleogeografik usul landshaftlarning litogen zamini, jinslarning yoshini tiklash, tuproqlar, o'simlik va iqlimni aniqlashda yordam beradi.

Landshaft-indikatsiya usuli yordamida kosmofotosuratlardagi voha kichik tizim (podsistema)larining chegaralari deshifrovka qilinishi mumkin.

Landshaft-geokimyo usul bilan tuproqlarning sho'rlanishi, yer usti va grunt suvlarining gidrokimyoviy tarkibi, tuproq gruntlarining tuz to'plashga moyilligi, yer usti suvlari, minerallashgan yer osti suvlari va boshqalar o'rganiladi.

Areallar usuli antropogen landshaftlarni mayda masshtabli o'rganishda qo'llaniladi. Uning mohiyati shundaki, kartada antropogen landshaftlarning areallari asosiy sinflari va tiplari ifodalanadi. Areallarni kartada ifodalashda obyektning o'ziga xos xususiyatlari va dastlabki materiallarining mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

Arxeogeografik usul qadimiy antropogen landshaft komplekslarini o'rta va yirik masshtabli o'rganishda asqotadi. O'rta Osiyoda eng ko'p tarqalgan madfun landshaftlar yemirilgan va ko'milib qolgan qadimiy shahar hamda qishloqlar, sanoat landshaftlari, qadimiy sug'orilgan yerlarni o'rganish va kartalashtirish ana shu metod asosida bajariladi.

NATIJALAR

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- landshaftlardagi dinamik jarayonlarga inson ta'siri aniqlangan;
- agrolandschaftlarda meliorativ sharoitni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;
- ekologik holatlarni GATni qo'llab, masofadan tadqiq qilish metodologiyasi takomillashtirilgan;
- ekologik vaziyatlarni yaxshilashning geografik asoslari tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati landshaftshunoslikda antropogen, jumladan, tuman landshaftlari haqidagi nazariyani to'ldirishga, agrolandschaft konsepsiyasiga doir, hududlarni masofadan tadqiq etish metodologiyasini takomillashtirishga doir bilimlarni boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishni bajarish davomida amaliyotga tavsiya etilgan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Buvayda tumani landshaftlarini ekologik-meliorativ jihatdan yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Tuman tabiatidan oqilona foydalanish yo'l-yo'riqlarini ilmiy asosda amalga oshirish uchun muhim obyekt hisoblanadi. Tuzilgan kartalar esa ekologik holatni yaxshilashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

O'tgan asrda insoniyat taraqqiyoti va fan-texnika inqilobi natijasida yer yuzasida inson faoliyati natijasida yuzaga keltirgan landshaft komplekslari maydonining kengayib borishi o'ta kuchli darajada tezlashdi. Shahar, qishloqlarning ko'payishi va maydonining kengayishi, ekin maydonlarining keskin darajada ortib borishi, avtomobil va temir yo'llarning barpo etilishi kabi omillar ta'sirida tabiiy landshaftlar o'rnida inson qo'li, aqlu-zakovati bilan yaratilgan landshaftlar barpo etildi. Ularning Yer yuzasida keng tarqalganligi landshaftshunoslikning alohida tarmog'i bo'lgan antropogen landshaftshunoslik fanining vujudga kelishiga va uning tezlik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

Vodiy landshaftlari geografik adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Masalan, qisqacha geografik ensiklopediyada (1962) voha deb, Liviya cho'lidagi aholi yashaydigan, daraxtlar va butalar hamda ular o'sadigan joylar izohlangan. Voha landshaftlari uzoq yillar davomida sug'orma dexqonchilik qilish va insonlarning doimiy ta'siri natijasida keskin o'zgargan antropogen landshaftlarning tarkibiy

qismidir. Vodiy landshaftlari tabiiy landshaftlarga o'xshash bo'lsada, o'zining strukturasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun voha landshaftlari unumdorligi, tuproqlari tarkibining yaxshilanib borishi, ular tarkibidagi chirindi miqdorining oshib borishi va uning tuproq qatlamlari bo'ylab bir tekis taqsimlanishi, agroirrigatsiya (sug'orish ta'sirida tuproqlar tarkibiga loyqa jinslarning qo'shib borishi) yotqiziqlarining mavjudligi bilan tabiiy landshaftlardan farq qiladi. Vodiylarda ko'p asrlardan buyon intensiv dexqonchilik qilib kelinishi natijasida tabiiy tuproq hamda o'simlik qoplamini o'rnini voha madaniy tuproq va o'simliklar egallagan.

O'rta Osiyoda antropogen geotizimlar orasida voha landshaftlari alohida o'rinni egallaydi. Voha landshaftlarini o'rganish, ularning strukturasini aniqlash, tasniflashtirish va kartalashtirish geograflar oldida turgan muhim va yaqin kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolardandir. Chunki, O'rta Osiyoning antropogen landshaft majmualari orasida sug'oriladigan dexqonchilik landshaftlari katta hududlarni egallaydi. Sug'oriladigan yerlarning tashqi ko'rinishi va tuzilishi juda xilma-xildir. Bunday hududlarni sug'oriladigan qishloq xo'jalik landshaftlari yoki agrolandschaftlar deb ataymiz va ularga paxta dalalari, bog'lar, uzumzorlar va tut plantatsiyalari hamda boshqa ekinlarning birlashmasidan iborat yerlar misol bo'ladi. Sug'oriladigan agrolandschaftlarda inson xo'jalik faoliyati tufayli tuproq va o'simlik qoplamining, iqlim, yer osti suvlarining, tuproqning kimyoviy va fizik tarkibi hamda boshqa komponentlarning sifat va miqdor jihatdan turlicha shakllanish jarayonlari sodir bo'ladi. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi landshaftlari tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri va ularni tartibga solish tabiiy landshaftlarnikidan ham farq qiladi.

XULOSA

Landshaftlarni kompleks tadqiq qilishda ko'pgina tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Ularning har biri o'zining ma'lum bir afzalliklariga ega. Ular orasida GATga asoslangan metod (distansion va aerokosmik) muhim hisoblanadi. Ulardan foydalanib, biztabiiy va antropogen landshaftlarda, ularning dinamikasi, strukturasini, tabiiy komponentlari, biologik maxsuldorligini aniqlashda, ularda kechayotgan jarayonlar intensivligini o'rganishda o'ta yuqori samaradorlikka ega bo'lishimiz mumkin. Hozirgi fan-texnika inqilobi davrida hududlarda tezkor ma'lumotlar olish, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik muammolarga yechim topish, ularning ekologik xavfsizligini saqlash borasida kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar ishlab chiqish hamda hududlarni ekologik barqarorligini ta'minlash yuzasidan bashoratlashtirish o'ta muhim vazifalar hisoblanib, ushbu vazifalarni bajarishda GAT texnologiyalarining ahamiyati kattadir.

Antropogen landshaftlarni va ularning tarkibiy qismi bo'lgan voha landshaftlarini tadqiq qilish, ularni o'rta va yirik masshtabli kartalashtirish, tasniflash, dinamik rivojlanishini kuzatish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Voha landshaftlarida qishloq xo'jalik ekin turlarini landshaft tiplariga moslashtirib

joylashtirish hosildorlik darajasining oshishiga, landshaft-ekologik muammolarni ijobiy hal qilishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республикада яшиллик даражасини янада ошириш, «Яшил макон» умуммиллий лойиҳасини изчил амалга ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2023 йил 23 ноябрдаги ПФ-199-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 31 майдаги “Ерларни муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш борасида назоратни кучайтириш, геодезия ва картография фаолиятини такомиллаштириш, давлат кадастрлари юритишни тартибга солиш чора тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
3. Abdugʻaniev I. Fargʻona viloyatining iqlimi, ichki suvlari, hayvonot dunyosi va tabiatini muhofaza qilish. _Fargʻona, 1990. –B 26-32
4. Ahmadaliyev Yu., Abduvaliev H. Fargʻona vodiysida aholi joylashuvini landshaft omili asosida takomillashtirish. Monografiya. “Classic” nashriyoti, Fargʻona, 2021. 140 b.
5. Boymirzayev K.M., Fargʻona vodiysi voha landshaftlaridan foydalanish va muhofaza qilish. –T.: «Fan» nashriyoti, 2007. -130 b.
6. Conrad C. Satellite based calculation of spatially distributed crop water requirements for cotton and wheat cultivation in Fergana Valley, Uzbekistan / C.Conrad, M.Rahmann, M.Machwitz // Global and Planetary Change. -2013. -Part A. -№110. - P.88-98.
7. Isaqov V. Fargʻona vodiysi sugʻoriladigan tuproqlarining xossalari, ekologik-meliorativ holati va mahsuldorligi//monografiya. Toshkent.2009. –B 282-295
8. Mirzahmedov I.K. Qoʻqon vohasi landshaftlarini ekologik optimallashtirish.//phd. diss. Samarqand. 2021. –B 72-7
9. Nigmatov A.N. Tabiiy geografiya va geoekologiya nazariyasi. Toshkent. 2018 –B
10. Qoʻziboeva O. Soʻx konussimon yoyilmasini mikrozonallashtirish va landshaft-meliorativ baholash//g.f.n.diss.avtoref. Toshkent.2006. 42-51